

O'zbekiston Respublikasida erkin iqtisodiy zona, kichik sanoat zona, texnopark va paxtachilik - to'qimachilik klasterlar faoliyati

2019 yilning yanvar-dekabr holatiga jami **16** ta erkin iqtisodiy zona direksiyasi (keying o'rinlarda - EIZ), **63** ta kichik sanoat zona direksiyasi (keying o'rinlarda - KSZ), **3** ta texnopark hamda **117 ta** paxta-to'qimachilik klasterlari (keying o'rinlarda - klaster) mavjud bo'lib, ularning tarkibidagi korxonalar soni EIZlarda **388** tani, KSZlarida **1317** tani, texnoparklarda **49** tani va klasterlarida **117**tani tashkil etadi.

2019 yil yanvar-dekabr oylarida EIZ, KSZ, texnopark, klasterlar




**2019 yil yanvar-dekabr oylarida hududlar kesimida EIZ, KSZ,
texnopark va klasterlar soni**

	Erkin iqtisodiy zona	Kichik sanoat zona	Texnopark	Paxtachilik- to'qimachilik va agro klaster
O'zbekiston Respublikasi	16	63	3	117
Qoraqalpog'iston Respublikasi	1	7	—	3
<i>viloyatlar:</i>				
Andijon	—	2	—	9
Buxoro	2	3	1	10
Jizzax	2	1	—	9
Qashqadaryo	—	5	—	31
Navoiy	1	—	—	3
Namangan	2	6	—	6
Samarqand	1	1	—	9
Surxondaryo	1	9	—	5
Sirdaryo	1	1	—	7
Toshkent	3	17	1	9
Farg'ona	1	2	—	8
Xorazm	1	1	—	6
Toshkent sh.	—	8	1	2




► 2019 yil yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha eng ko'p erkin iqtisodiy zona Toshkent viloyatida 3 tani, Buxoro, Jizzax, Namangan viloyatlarida 2 tadan tashkil etadi.

EIZ, KSZ, texnopark va klasterlar jami soniga nisbatan ulushi, %



EIZ, KSZ, texnopark va klasterlar tarkibida tashkil etilgan korxonalar sonining ulushi, %



2019 yil yanvar-dekabr oylarida EIZ, KSZ, texnopark va klasterlar tarkibiga kiruvchi korxonalar tomonidan:

– sanoat mahsuloti ishlab chiqarish

Hajmi **15074,4** mln. so`mni


tashkil qildi;

Eng yuqori ko'rsatkich EIZlar tarkibidagi korxonalar hissasiga to'g'ri kelgan bo'lib **7877,5** mlrd. so'mni yoki umumiy sanoat ishlab chiqarish hajmga nisbatan **52,3** %ni tashkil etgan.



- **Tagqoslash uchun** : 2018 yil yanvar-dekabr oylarida EIZ, KSZ, texnopark va klasterlar tarkibiga kiruvchi korxonalar tomonidan sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 5434,1 mlrd. so`mni tashkil qilgan bo'lsa, 2019 yil yanvar-dekabr oylarida ushbu ko'rsatkich 15074,4 mlrd. so`mni tashkil etib sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2,8 martaga oshgan.

2019 yil yanvar-dekabrida EIZ, KSZ, texnopark va klasterlar tomonidan sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so'm



2019 yil yanvar-dekabrda zonalar bo'yicha sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi eng ko'p EIZlarda **7877,5** mlrd. so'm yoki umumiy sanoat ishlab chiqarish hajmga nisbatan **52,3** %ni, klasterlarda **4477,4** mlrd. so'm (umumiy sanoat ishlab chiqarish hajmga nisbatan **29,7** %)ni, KSZlarda **2516,5** mlrd. so'm (umumiy sanoat ishlab chiqarish hajmga nisbatan **16,7** %)ni, texnoparklarda **202,9** mlrd. so'm (umumiy sanoat ishlab chiqarish hajmga nisbatan **1,3** %)ni tashkil etdi.



2019 yil yanvar-dekabr oylarida EIZ, KSZ, texnopark va klasterlar tarkibiga kiruvchi korxonalar tomonidan:



– o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **68878,7** mln. so'mni tashkil qildi;

Eng yuqori ko'rsatkich EIZlar tarkibidagi korxonalar hissasiga to'g'ri kelgan bo'lib **36860,7** mln. so'mni yoki umumiy qurilish ishlari hajmiga nisbatan **53,5** %ni tashkil etgan

► **Tagqoslash uchun** : 2018 yil yanvar-dekabr oylarida EIZ, KSZ, texnopark, klasterlar tarkibiga kiruvchi korxonalar tomonidan o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 53461,7 mln. so'mni tashkil qilgan bo'lsa, 2019 yil yanvar-dekabr oylarida ushbu ko'rsatkich 68878,7 mln. so'mni tashkil etib qurilish ishlari hajmi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 28,8%ga ko'paygan.

2019 yil yanvar-dekabr oylarida EIZ, KSZ, texnopark va klasterlarlar tarkibiga kiruvchi korxonalar tomonidan:


– Moliyalashtirishning barcha manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi **5481,0** mlrd. so'm(o'tgan yilning shu davriga nisbatan **2,5** martaga o'sgan)ni tashkil etdi

Eng yuqori ko'rsatkich EIZlar tarkibidagi korxonalar hissasiga to'g'ri kelgan bo'lib **3313,1** mlrd. so'mni yoki umumiy investitsiya hajmiga nisbatan **60,4** %ni tashkil etgan.



► **Tagqoslash uchun** : 2018 yil yanvar-dekabr oylarida EIZ, KSZ, texnopark, klasterlarlar tarkibiga kiruvchi korxonalar tomonidan moliyalashtirishning barcha manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi 2195,6 mlrd. so`mni tashkil qilgan bo'lsa, 2019 yil yanvar-dekabr oylarida ushbu ko'rsatkich 5481,0 mlrd. so`mni tashkil etib investitsiyalar hajmi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2,5 martaga oshgan.

2019 yil yanvar-dekabrida EIZ, KSZ, texnopark, klasterlar bo'yicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi, mlrd. so'm



2019 yil yanvar-dekabrida zonalar bo'yicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi eng ko'p EIZlarda **3313,1** mlrd. so'm yoki umumiy investitsiya hajmiga nisbatan **60,4** %ni, klasterlarda **1743,8** mlrd. so'm (umumiy investitsiya hajmiga nisbatan **31,8** %)ni, KSZlarda **414,9** mlrd. so'm (umumiy investitsiya hajmiga nisbatan **7,6** %)ni, texnoparklarda **9,1** mlrd. so'm (umumiy investitsiya hajmiga nisbatan **0,2** %)ni, tashkil etdi.




2019 yil yanvar-dekabr oylarida EIZ, KSZ, texnopark, klasterlar tarkibiga kiruvchi korxonalar tomonidan:

– Foyda solig'ini to'lagunga qadar foyda (zarar (-) miqdori **791,2** mlrd. so'm(o'tgan yilning shu davriga nisbatan **1,5** %ga o'sgan)ni tashkil etdi.

Eng yuqori ko'rsatkich EIZlar tarkibidagi korxonalar hissasiga to'g'ri kelgan bo'lib 401,7 mlrd. so'mni yoki umumiy foydaning 50,8 %ni, tashkil etgan.

► **Taqqoslash uchun** : 2018 yil yanvar-dekabr oylarida EIZ, KSZ, texnopark, klasterlar tarkibiga kiruvchi korxonalar tomonidan foyda solig'ini to'lagunga qadar foyda (zarar (-) miqdori **520,5** mlrd. so'mni tashkil qilgan.

2019 yil yanvar-dekabrida EIZ, KSZ, texnopark, klasterlar bo'yicha foyda solig'ini to'lagunga qadar foyda (zarar) hajmi, mln. so'm




2020 yil 1 dekabr holatiga EIZ, KSZ, texnopark, klasterlar tarkibiga kiruvchi korxonalarining debitor va kreditor qarzdorligi:

– debitor qarzdorlik miqdori **4868,1** mlrd. so'm (o'tgan yilning shu davriga nisbatan **3,3** barobar o'sgan)ni tashkil etdi.

– kreditor qarzdorlik miqdori **7415,1** mlrd. so'm (o'tgan yilning shu davriga nisbatan **3,2** barobar o'sgan)ni tashkil etdi.

► **Tagqoslash uchun** : 2018 yil 1 dekabr holatiga EIZ, KSZ, texnopark, klasterlar tarkibiga kiruvchi korxonalar tomonidan debitor qarzdorlik miqdori 1457,8 mlrd. so'm, kreditor qarzdorlik miqdori 2344,4 mlrd. so'mni tashkil qilgan.

**EIZ, KSZ, texnopark, klasterlar tarkibiga kiruvchi korxonalar
2020 yil 1 dekabr holatiga debitor va kreditor
qarzdorligi, mlrd.so'm**



2019 yil yanvar-dekabr oylarida EIZ, KSZ, texnopark, klasterlar tarkibiga kiruvchi korxonalar tomonidan:

– respublikadan tashqari(eksport) ga yuklab jo'natilgan sanoat mahsulot (tovarlar va xizmatlar)lari miqdori **2685,7** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Eng yuqori ko'rsatkich klasterlar tarkibidagi korxonalar hissasiga to'g'ri kelgan bo'lib **1199,8** mlrd. so'mni, yoki umumiy respublikadan tashqari(eksport)ga yuklab jo'natilgan sanoat mahsulot hajmiga nisbatan **44,7** %ni, tashkil etgan.



2019 yil yanvar-dekabrida EIZ, KSZ, texnopark, klasterlar bo'yicha respublikadan tashqari(eksport)ga yuklab jo'natilgan sanoat mahsulot (tovarlar va xizmatlar)lari hajmi, mlrd. so'm

